



SURXONDARYO VILOYATIDA JOYLASHGAN SHIFOBAXSH BULOQLAR

Omonov Kamoliddin Rustam o'g'li

O'zMU geografiya talim yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotasiya: Ushbu maqola Surxandaryo viloyatida joylashgan shifobaxsh buloqlarning joylashgan o'rni, uning shifobaxshligi qaysi kasalliklarga davo ekanligi va bu buloqlar suvining xususiyatlari haqida yoritilib berilgan

Kalit so'zlar: buloq, shifobaxsh buloq, relyef, g'or, tog', hisor, bobotog', boysun, ko'hitang, sanatoriya,

Surxondaryo viloyati hududidagi mineral buloqlarning tarkibi xilma-xil bo'lib, bir-biridan buloq suvi tarkibidagi minerallarning shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Viloyatdagi mavjud buloqlarni asosan shifobaxshligi hamda antita'sir (buloq suvlarining inson va uning organizmiga salbiy ta'siri) darajasiga ko'ra ko'proq o'rganiladi va buloq suvlaridan foydalaniladi. Buloq suvlari ba'zi hollarda insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mineral buloqlarning ko'pchilligi Hisor tog'larining janubi-g'arbiy tarmoqlarida joylashgan. Bobotog' massivi hududida ham bir qancha buloqlarni uchratishimiz mumkin biroq bu buloqlarning ham barchasi shifobaxshlik xususiyatiga ega emas. Jarmasoy, Arg'amchisoy, Quruqsoy, Teraksoy va Fayzovasoy kabi nomlar bilan ataluvchi soyliklarda mahalliy tilda "Quduq" deb ataluvchi buloqlar mavjud bo'lib, suvi nihoyatda sho'r bo'lganligi uchun ichishga yaroqsiz. Aslida bu suvlar ham buloqlarning bir ko'rinishi. Ayrim buloqlarda bosim yuqori bo'lmaganligi uchun yer yuziga oqib chiqmaydi. Lekin ma'lum bir chuqurlikdagi masofada doimiy suv bor. Bunday buloq suvlaridan asosan chorva mollarini sug'orishda foydalanadi.

Viloyatdagi ba'zi mineral buloqlarning shifobaxshlik xususiyati, shu buloq atrofidagi xalqlar uchun ma'lumdir. Ko'pchillik shifobaxsh buloqlar esa aholi manzilgohlaridan yiroqda joylashgan. Shunday buloqlar sirasiga Bobotog'ning sharqiy yonbag'rida, dengiz sathidan 1160 m balandlikda joylashgan, mahalliy aholi tilida "Oqsuv" nomini olgan buloq shular jumlasidandir. Taxminan Bobotog' massividagi Zarkamar qishlog'idan 6-7 km masofada joylashgan ushbu buloq suvidan mahalliy aholi teri kasalliklari va oshqozon ichak kasalliklariga shifo ekanligini juda yaxshi bilishadi. Buloq suvi unchalik ko'p emas, taxminan 1 minutda 4-5 litr atrofida suv chiqadi. Buloq atrofiga yaqinlashgan sayin oltingugurt hidi



dimog'ingizga uriladi. Xuddi "Xo'jaipok" bulog'i suvi bilan bir xildek. Bulog suvi tarkibi aniqlanmagan bo'lsa ham, Oqsuv bulog'ining tarkibi Xo'jaipok bulog'i tarkibidagi minerallardan kam emasligi ma'lum.

Surxondaryo Hisor, Bobotog', Ko'hitang, Boysun kabi purviqor tog' tizmalari bag'rida joylashgan bo'lib, tabiat mo'jizalariga boy, so'lim go'shalari, betakror tabiat manzaralari va tanga davo shifobaxsh bulog suvlari bilan ham tanilgan, sayyohlarni maftun etgan.

O'zbekistonning Boysun tumanidagi Xo'jamayxona bulog'i azaldan mahalliy aholi o'rtasida shifobaxshligi bilan mashhur bo'lgan. Maftunkor tabiat manzaralari qo'ynidan sizib chiqayotgan obi-hayot o'ta tiniq va yilning to'rt faslida ham birdek salqin bo'lib turadi. Uni iste'mol qilgan yoshu-keksaga quvvat ulashib, qalbiga xushnudlik bag'ishlaydi. Shu bois buloqning siru-sinoati bu suvdan iste'mol qiladigan Darband qishlog'i ahlini qiziqtirib kelgan.

– Juda ko'p yillardan buyon Rossiyada ishlaydigan shifokor hamqishlog'imiz bor,– deydi darbandlik Ravshan Amanqulov.– O'zi zo'r kardiolog. Shu kishi bir yili mehmonga kelganlarida gapdan-gap chiqib, qishlog'imiz odamlari Xo'jamayxona bulog suvining xususiyatini o'rganib berishni iltimos qilgan. Shu bahona suvning tarkibini tahlil qilgan mehmonimiz uni "Kavkazdagi eng shifobaxsh suvlardan ham shifobaxshiroq ekan", deya ta'rif bergani, ayniqsa, yurak-qon, tomir kasalliklariga davo, deb aytganini eshitgan edim. Shundan buyon bu suvni kanda qilmay ichamiz va ruhan tetik bo'lib yuramiz.

Mutaxassislarning aytishicha, buloqdan sekundiga uch kub suv otilib chiqadi. Suvda bir metrgacha uzunlikdagi baliqlar suzib yuradi. Lekin, ularni hech kim ovlamaydi. Tepadan pastga qarab, torayib boradigan suv g'orining chuqurligi ham o'rganilmagan.

Mo'jizalarga boy Xo'jamayxona atroflari yoz faslida odamlar, sayyohlar bilan gavjum bo'ladi.

Omonxona bulog'i Surxondaryo viloyatidagi Omonxona qishlog'i Boysun tumani markazidan 16 kilometr uzoqlikda joylashgan. Uning atrofi quyuq archazor bilan o'ralgan bo'lib, yaqin orada Omonxona g'ori ham mavjud. G'orning balandligi 3.5 metr, umumiy maydoni esa 60 kvadrat metrni tashkil etadi. G'or ichidagi harorat tashqaridagi haroratdan ko'ra farqli bo'ladi

Bulog suvi tarkibida kremniy kislotasi, temir, alyuminiy va boshqa ko'plab mikroelementlar mavjudligi aniqlangan. Mutaxassislarning fikricha, suv tarkibidagi foydali birikmalar jigar, o't pufagi yo'llarini davolash xususiyatiga ega.



2018-yilda buloq suvi fabrika tomonidan qadoqlana boshlangan. Mazkur ish „O‘zbekiston temir yo‘llari“ AJ tomonidan amalga oshirilgan. So‘rovlarga ko‘ra, mahalliy aholi ham noqoqnuniy tarzda shu ish bilan shug‘ullanganligi aniqlangan va ularning faoliyati to‘xtatilgan.

Omonxona buloq suvining shifobaxshligi sababli bu hududga O‘zbekistonning turli hududlaridan insonlar davolanish uchun kelishadi. Shu sababli ham mazkur hududda „Omonxona“ sihatgohi tashkil etilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil oktyabr oyidagi qaroriga binoan „O‘zbekiston temir yo‘llari“ AJ ixtiyoriga berilgan.

Sanatoriyada asosan buloqning ma‘danli suvli muolajalari amalga oshiriladi. Shuningdek, sihatgohda qo‘shimcha ravishda massaj, diagnostika, UZI, elektroterapiya, fitoterapiya singari o‘nlab davolash xizmatlari ham yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, mazkur hududda O‘zbekiston temir yo‘llari aksiyadorlik kompaniyasiga qarashli zamonaviy „Omonxona“ davolash maskanidan tashqari, yana bitta zamonaviy mehmonxona, hamda 9 ta oilaviy mehmon uyi, shuningdek, shifobaxsh suvni qadoqlash korxonasi faoliyat yuritmoqda.

Mineral suvli vannalar bilan davolash haqida A.Z.Zokirovning "O'zbekistonning shifobaxsh resurslari va shifobaxsh maskanlari" asarida batafsil yoritilgan. Mineral suvli vannalar kamquvvat bemorlarga va qon aylanishi buzilishining birinchi bosqichi, gipertoniyaning ikkinchi bosqichi hamda gipotoniya (bemor o'zini holsiz sezmasa) buyuriladi [2].

Kasalliklarni davolashda mineral suvlar tarkibi, organik moddalar va mikroelementlar hisobga olinadi. Mineral vannalarning organizmga ta'sirini ta'minlovchi asosiy omillaridan biri-suvning haroratidir. Harorat teri termoreseptorlariga ta'sir etib, qon aylanish sistemasida reflektor o'zgarishlarini yuzaga keltiradi va organizmda moddalar almashinuvini kuchaytiradi. Issiq vannalar terida va surunkali yallig'lanish o'chog'ida qon aylanishini yaxshilaydi, bu esa asab sistemasining yallig'lanish kasalliklarini davolovchi asosiy omil hisoblanadi. Organizmga ko'p miqdorda issiqlik kirib, oksidlanish jarayonini uyg'unlashtiradi. Zararli moddalarni organizmdan chiqarib yuborib, himoya kuchini oshiradi. Masalan, sulfidli vannalar muolajasidan keyin bemor terisida organizmga shifobaxsh ta'sir ko'rsatuvchi tuz qatlami hosil bo'ladi. Bu mineral suvlarning bemorlarga ham termik, ham mexanik ta'sir ko'rsatishini bildiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Атлас родников Узбекистана. Т., 2006., 92-б.
2. А.З.Зокиров. Узбекистоннинг шифобахш ресурслари ва шифогох, масканлари,-Т.:Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашр,.1997.-184 б.
3. Ю.С.Ковалев,,Л.А.Калабугин. Сирли булоклар/"Mehnat"-Т., 1987.-73 б.
4. O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi Surxondaryo viloyati gidrogeologiya stansiyasi axboroti. Yurchi qo'rg'onchasi-2021.